

FANTASTIK ADABIYOT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI: G'ARB VA SHARQ AN'ANALARINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

Tursunova Mohira Ilxomjanovna

Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: mohiratorsunova1105@gmail.com

ORCID: 0009-0007-6629-2068

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21932892>

Annotatsiya. Ushbu maqolada fantastik adabiyotni nazariylashtirishning jahon adabiyotshunosligidagi asosiy yo'nalishlari, strukturalistik-formal, sotsial-kognitiv, psixanalitik-subversiv va taksonomik-tipologik maktablar qiyosiy tahlil qilinadi. Alohida bo'lim sifatida G'arb nazariyalarida deyarli e'tiborga olinmagan Sharq mumtoz adabiyotidagi tasavvufiy-ramziy fantastika hodisasi va o'zbek adabiyotshunosligida bu sohaning nazariy holati ko'rib chiqiladi. Tahlil natijasida ontologik, funksional-kognitiv va milliy-madaniy zaminga asoslangan uch bosqichli sintetik model taklif etiladi va uning amaliyotdagi qo'llanilishi Gerbert Uells, J.R.R. Tolkien, J.K. Rouling, Alisher Navoiy va Xudoyberdi To'xtaboyev asarlari misolida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: fantastik adabiyot, ikkilanish nazariyasi, kognitiv begonalashtirish, arxetip, tasavvufiy fantastika, qiyosiy adabiyotshunoslik, tipologik model.

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ основных направлений теоретического осмысления фантастической литературы в мировом литературоведении: структуралистско-формального, социально-когнитивного, психоаналитико-субверсивного и таксономическо-типологического подходов. В отдельном разделе рассматриваются феномен суфийско-символической фантастики в классической литературе Востока, практически не получивший должного освещения в западных теориях, а также современное состояние теоретического изучения данной области в узбекском литературоведении. По результатам анализа предлагается трёхуровневая синтетическая модель, основанная на онтологическом, функционально-когнитивном и национально-культурном уровнях. Практическое применение данной модели демонстрируется на материале произведений Герберта Уэллса, Дж. Р. Р. Толкина, Дж. К. Роулинг, Алишера Навои и Худайберди Тухтабаева.

Ключевые слова: фантастическая литература, теория колебания, когнитивное остранение, архетип, суфийская фантастика, сравнительное литературоведение, типологическая модель.

Abstract. This article provides a comparative analysis of the principal approaches to the theorization of fantastic literature in international literary scholarship, including the structuralist-formalist, socio-cognitive, psychoanalytic-subversive, and taxonomic-typological schools. A separate section examines the phenomenon of Sufi-symbolic fantasy in classical Eastern literature, which has received little attention in Western theoretical frameworks, as well as the current state of its theoretical study in Uzbek literary scholarship. Based on the analysis, a three-level synthetic model grounded in ontological, functional-cognitive, and national-cultural dimensions is proposed. Its practical application is demonstrated through selected works by H. G. Wells, J. R. R. Tolkien, J. K. Rowling, Alisher Navoi, and Khudoyberdi Tukhtaboyev.

Keywords: fantastic literature, theory of hesitation, cognitive estrangement, archetype, Sufi fantasy, comparative literature, typological model.

Kirish. Fantastik adabiyotni nazariy jihatdan o'rganishga kirishar ekanmiz, birinchi navbatda tan olishimiz kerak bo'lgan haqiqat shuki, mazkur soha jahon adabiyotshunosligida hozirgacha yagona, umume'tirof etilgan tushunchalar tizimiga ega emas. “Fantastika” (fantasy), “ilmiy fantastika” (science fiction), “sehrli realism” (magic realism), “spekulyativ fantastika” (speculative fiction), “g'ayritabiiy adabiyot” (the fantastic) kabi atamalar ko'pincha bir-birining o'rnida, ba'zan esa bir-biriga qarama-qarshi ma'noda qo'llaniladi. Bu tartibsizlik tasodifiy emas: u fantastik adabiyotning tabiatan chegaralanmagan, ko'p qatlamli va tarixiy jihatdan turlicha shakllangan hodisa ekanligidan kelib chiqadi.

Muammoning yana bir muhim qirrası shundaki, “fantastika” tushunchasi kundalik-ommaviy nutqda ko'pincha “xayoliy”, hatto “jiddiy bo'lmagan” adabiyot ma'nosida qo'llaniladi. Bu esa uni ilmiy tahlil predmeti sifatida jiddiy qabul qilishga to'sqinlik qiluvchi uzoq davom etgan madaniy stereotipni keltirib chiqargan. Shu sababli ushbu maqolaning boshlang'ich metodologik pozitsiyasi sifatida fantastik adabiyot

“eskapistik ko‘ngilxushlik” emas, balki insoniyatning borliq, bilim va ijtimoiy tuzum haqidagi eng chuqur savollarini ifodalovchi to‘liq huquqli badiiy-falsafiy tafakkur shakli sifatida qaraladi.

Maqolaning maqsadi mavjud nazariy yondashuvlarni shunchaki sanab o‘tish emas, balki ularni qiyosiy-tanqidiy tahlil qilish, har birining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, hamda ular asosida o‘zbek va jahon fantastik adabiyotini tipologik jihatdan qiyoslash uchun zarur bo‘lgan ishchi apparatni yaratishdan iborat.

G‘arb adabiyotshunosligida fantastik adabiyotni nazariylashtirish jarayoni taxminan uch asosiy oqim doirasida rivojlandi: strukturalistik-formal (Todorov, Frey), sotsial-kognitiv (Suvin, Skoulz) va psixanalitik-subversiv (Jekson, Hyum). Quyida ularning har birini juftlab, qiyosiy tarzda ko‘rib chiqamiz.

Fantastik adabiyot nazariyasidagi eng ta‘sirli va bahsli konsepsiyalardan biri fransuz-bolgar strukturalisti Tsvetan Todorovga tegishli. Uning “The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre” (1970) asarida taklif etilgan “ikkilanish” (hesitation) nazariyasiga ko‘ra, g‘ayritabiiylikning o‘zi emas, balki o‘quvchining matn oldida his qiladigan qisqa muddatli epistemologik holati, ya‘ni voqeani tabiat qonunlari asosida izohlash kerakmi, yoki g‘ayritabiiy sabab bilanmi, degan ikkilanish fantastikaning belgisi hisoblanadi [21. 1975:B.25]. Todorov bu ikkilanish tugagan zahoti asar “g‘aroyib” (uncanny) yoki “mo‘jizaviy” (marvelous) toifasiga o‘tib ketishini ta‘kidlaydi.

Todorov nazariyasining metodologik qimmatini shundaki, u fantastikani mavzu yoki motivlar ro‘yxati orqali emas, balki o‘quvchi-matn munosabati orqali belgilaydi. Biroq bu nazariyaning jiddiy cheklovi ham shundaki, u asosan XIX asr Yevropa gotik-fantastik adabiyoti (Po, Gogol, Mopassan) materialida ishlab chiqilgan bo‘lib, J.R.R. Tolkienning “Uzuklar Hukmdori” singari “yuqori fantastika” (high fantasy) asarlariga qo‘llanilganda ishlaymay qoladi. Bu romanning birinchi sahifalaridanoq o‘quvchi O‘rta yerning g‘ayritabiiy borlig‘ini shubhasiz haqiqat sifatida qabul qiladi, hech qanday “ikkilanish” yuzaga kelmaydi [23. 2021:Muqaddima]. Xuddi shunday, o‘zbek xalq ertaklarida ham dev, jin yoki parilarning mavjudligi boshidanoq shubhasiz qabul qilinadi. Demak, Todorov modeli fantastik adabiyotning faqat bitta “ikkilanish fantastikasi” deb nomlanuvchi tipologik qatlamini izohlay oladi, xolos.

Nortrop Freyning “Anatomy of Criticism” (1957) asari fantastikani janr emas, balki adabiy “rejim” (mode) sifatida ko‘rish imkonini beradi. Frey barcha adabiyotni qahramonning voqelikka nisbatan kuch-qudrati darajasi bo‘yicha besh rejimga ajratadi: mif, roman, yuqori mimetik, past mimetik va ironiya [6. 1957:B.33-34]. Uning fikricha, fantastik adabiyot ko‘pincha “roman” rejimiga mansub bo‘lib, unda qahramon oddiy inson darajasidan yuqori turadi, ammo mif qahramonlaridan farqli o‘laroq hali ilohiy emas. Freyning arxetiplar nazariyasi, xususan “qahramon safari” strukturasi (keyinchalik Jozef Kempbell tomonidan “monomif” sifatida rivojlantirilgan) [4. 1949:B.23,30], qiyosiy tahlil uchun ayniqsa qimmatli. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sirli xazina” asaridagi Foteh obrazi ham, J.K. Rouling romanidagi Garri Potter obrazi ham garchi ikkala asar mutlaqo turli madaniy zaminda yaratilgan bo‘lsa-da, xuddi shu “oddiy dunyo – chaqiriq – sinovlar – g‘alaba – qaytish” dan iborat monomifik chizmaga mos keladi [22. 1978:B.12-14].

Darko Suvin o‘zining “Metamorphoses of Science Fiction” (1979) asarida ilmiy fantastikani “kognitiv begonalashtirish” (cognitive estrangement) tushunchasi orqali ta‘riflaydi. Bu o‘quvchini tanish voqelikdan uzoqlashtirib, yangi, “novum” asosida qurilgan olamni aql-idrok nuqtayi nazaridan qabul qilishga undovchi badiiy usuldir [20. 1979:B.7-8]. Bu mezon ilmiy fantastikani sof “ertak” yoki “sehrli fantastika”dan ajratib turadi. Ilmiy fantastikada g‘ayrioddiylik doim ratsional asoslashga muhtoj. Masalan, Gerbert Uellsning “Vaqt mashinasi” romanida vaqt bo‘ylab sayohat qilish g‘oyasi (garchi zamonaviy fizika nuqtayi nazaridan bahsli bo‘lsa-da) mexanik qurilma va nazariy asoslash orqali “ilmiylashtiriladi”, bu esa asarni sof ertak fantastikasidan ajratib turadigan aynan shu kognitiv mezondir [25. 1895:B.3-9].

Suvin konsepsiyasining muhim tanqidiy jihati shundaki, u marksistik-formalistik pozitsiyadan turib fantastika (fantasy) janrini “kognitiv bo‘lmagan”, demak “estetik jihatdan quyi” hodisa sifatida qarashga moyil bo‘ladi. Bu qarash keyingi o‘n yilliklarda ko‘plab tanqidchilar, xususan Brayan Atteberi va Farah Mendleson, tomonidan asossiz deb rad etildi, chunki u fantastika yo‘nalishidagi ichki mantiqiy izchillikni (masalan, Tolkien ilgari surgan “ikkilamchi ishonch” (secondary belief) tamoyilini) e‘tibordan chetda qoldiradi [2. 1992:B.12]. Shunga qaramay, Suvin nazariyasi Gerbert Uells va Xojiakbar Shayxov ilmiy fantastikasini qiyosiy baholash uchun bugungacha ishonchli mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Robert Skoulz Suvin g‘oyasini rivojlantirib, ilmiy fantastikani “strukturaviy fabulyatsiya”, ya‘ni zamonaviy fan yutuqlaridan ilhomlangan, ammo ularga qat‘iy ergashmaydigan hikoyachilik shakli sifatida ta‘riflaydi [18. 1975:B.29]. Bu nuqtayi nazardan Xojiakbar Shayxovning ilmiy-fantastik qissalari ham xuddi shunday strukturaviy fabulyatsiya namunasi sifatida talqin qilinishi mumkin. Unda ilmiy g‘oya syujet

quruvchi asos vazifasini bajaradi, biroq muallif uni qat'iy ilmiy nazariyaga emas, balki badiiy-tasavvuriy erkinlikka bo'ysundiradi [19. 1985:B.22-25].

Rozmari Jekson “Fantasy: The Literature of Subversion” (1981) asarida fantastikani freyd-lakanchi psixoanaliz va Bahtin nazariyasi asosida talqin qiladi. Uning fikricha, fantastika jamiyat tomonidan bostirilgan istak va qo'rquvlarning simvolik “qaytishi: (the return of the repressed) hisoblanadi hamda mavjud ijtimoiy-madaniy tartibni subversiv tarzda savol ostiga oladi [9. 1981:B.3-4]. Bu yondashuv, masalan sehrli realizm uslubida yozilgan “Sariq devni minib” qissasidagi bosh qahramonning ichki-ruhiy o'zgarishini [24. 1980:B.5-8] hamda ingliz yozuvchisi Devid Almondning “Skellig” romanidagi qahramon Maykl bilan sirli mavjudot Skellig o'rtasidagi munosabatni [1. 1998:B.15-20] tushunish uchun samarali metodologik asos beradi. Ikkala asarda ham g'ayritabiiy unsur qahramonning bostirilgan qo'rquvi (yaqinini yo'qotish, yolg'izlik) bilan bevosita bog'liq holda paydo bo'ladi.

Ketrin Hyum “Fantasy and Mimesis” (1984) asarida yanada kengroq pozitsiyani egallaydi. U fantastikani mustaqil janr emas, balki barcha badiiy adabiyotning tarkibiy qismini “konsensual voqelikdan chetga chiqish impulsi” sifatida ta'riflaydi, bu impuls mimezis bilan doimiy dialektik munosabatda bo'ladi [7. 1984:B.21]. Hyum konsepsiyasining ahamiyati shundaki, u “realistik” va “fantastik” adabiyot o'rtasidagi qat'iy chegarani inkor etadi. Bu ayniqsa sehrli realizm kabi ikki registrni sintez qiluvchi janrlarni tahlil qilishda metodologik jihatdan qulay pozitsiya yaratadi.

Farah Mendlesoning “Rhetorics of Fantasy” (2008) asari fantastika yo'nalishini to'rt retorik-strukturaviy toifaga ajratadi: portal-quest fantasy (qahramon eshik/portal orqali boshqa olamga o'tadi), immersive fantasy (o'quvchi va qahramon boshidanoq to'liq fantastik olamda yashaydi), intrusion fantasy (g'ayritabiiylik tanish voqelikka “bostirib kiradi”) va liminal fantasy (g'ayritabiiylik va tabiiylik chegarasi ataylab noaniq qoldiriladi) [11. 2008:B.xiv-xv]. Bu klassifikatsiya amaliy jihatdan juda qulay: masalan, Tolkiennning “Uzuklar Hukmdori” klassik portal-quest namunasi, Rouling romanlari portal va immersiv unsurlarning gibridi (Xogvorts maktabi “boshqa olam”, ammo aslida bosh qahramon dunyosining yashirin qismi)[17. 1997:B.1-5], Uellsning “Vaqt mashinasi” intrusion fantasyning texnik-ilmiy varianti, “Sariq devni minib” va “Skellig” esa liminal fantasy namunalari, chunki ularda g'ayritabiiylik oxirigacha tasdiqlanmay qoladi.

Brayan Atteberi “Strategies of Fantasy” (1992) asarida fantastikani qat'iy chegaralangan janr emas, balki “loyqa to'plam” (fuzzy set) sifatida ko'rishni taklif qiladi. Bunda Tolkiennning “Uzuklar Hukmdori” markaziy, prototipik a'zo bo'lsa, undan “markazdan uzoqlashgan” sari boshqa asarlar, jumladan sehrli realizm namunalari, shu to'plamning periferiyasida joylashadi. Bu yoki fantastika, yoki fantastika emas degan qat'iy binar klassifikatsiyadan voz kechib, gradual, spektr asosidagi tahlilni taklif etadi. Bu yondashuv “Sariq devni minib” va “Skellig” asarlarini sehrli realizm spektrida joylashtirishda metodologik jihatdan qo'l keladi.

Rus formalisti Vladimir Proppning “Морфология сказки” (1928) asari, garchi bevosita “fantastika nazariyasi” sifatida yozilmagan bo'lsa-da, fantastik-ertak strukturasi tahlil qilishning eng ta'sirchan vositalaridan biri bo'lib qolmoqda. Propp rus xalq ertaklarida qat'iy ketma-ketlikda takrorlanuvchi o'ttiz bir funksiyani (taqiq, taqiqni buzish, qahramonning yo'lga chiqishi, sinovchi bilan uchrashuv, sehrli vositaning qo'lga kiritilishi va h.k.) aniqlagan edi [28. 1928:B.23-24]. Ushbu morfologik model o'zbek ertaklari, jumladan “Shirin qovunlar mamlakati” ertagi, va Rouling romanlarining syujet strukturasi funksional darajada qiyoslashda universal tahlil vositasi bo'la oladi. Ular mustaqil madaniy zaminlarda shakllangan bo'lsa-da ikkala matnda ham “taqiq”, “sinovchi bilan uchrashuv” va “sehrli vositaning qo'lga kiritilishi” funksiyalari deyarli bir xil ketma-ketlikda takrorlanadi.

Jon Klut va Jon Grantning “The Encyclopedia of Fantasy” (1997) nashri fantastika nazariyasiga entsiklopedik-taksonomik yondashuvni olib kirdi, unda janr o'nlab kichik toifalar (dying earth, portal fantasy, wainscot, crosshatch va h.k.) orqali tasniflanadi [5. 1997:B.viii-ix]. Ushbu taksonomiya juda tafsilotli bo'lsa-da, uning zaif tomoni shundaki, u deyarli butunlay anglo-amerika fantastika materialiga asoslangan bo'lib, turkiy va sharq xalqlari fantastik an'analarini (masalan, doston, tasavvufiy allegoriya) o'z tizimiga umuman kiritmaydi. Xuddi shu kamchilik, quyida ko'rsatilganidek, deyarli barcha G'arb nazariyalariga xosdir.

Yuqorida ko'rib chiqilgan G'arb va rus-slavyan nazariyalarining muhim kamchiligi shundaki, ular Sharq, xususan turkiy-forsiy mumtoz adabiyotidagi fantastik-ramziy tafakkurni butunlay e'tibordan chetda qoldiradi. Ushbu bo'shliqni to'ldirish uchun tasavvuf falsafasidagi ramziy til (til ar-ramz) nazariyasiga murojaat qilish zarur. Ibn Arabiy va undan keyingi tasavvuf mutafakkirlari ishlab chiqqan “vahdat ul-

vujud” ta’limotida moddiy va g’ayritabiiy olam o’rtasidagi chegara G’arb dualistik tafakkuridagidek qat’iy emas, barcha mavjudot yagona haqiqatning turli tajalliyarlari sifatida qaraladi.

Bu falsafiy zamin Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr” [3. 1997:B.45-47] va uning o’zbek tilidagi ijodiy talqini bo’lgan Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarlarida [12. 2000:B.210-215] fantastik-allegorik syujetning chuqur falsafiy asosini tashkil etadi. Qushlarning Simurg‘ qidirib chiqqan sayohati oxir-oqibat o’z-o’zini anglashga aylanishi “Simurg‘ o’zing o’zingsan”) shunchaki badiiy metafora emas, balki vahdat ul-vujud ta’limotining bevosita badiiy ifodasidir. Bunday “tasavvufiy fantastika” modeli Todorovning “ikkilanish” nazariyasidan tubdan farq qiladi. Bu yerda o’quvchidan hech qanday “ikkilanish” talab qilinmaydi, chunki g’ayritabiiy va tabiiy o’rtasidagi chegaraning o’zi ontologik jihatdan shartli hisoblanadi. Shu bilan birga, bu model Mendleson “immersive fantasy” toifasiga ham to’liq mos kelmaydi, chunki tasavvufiy fantastikada asosiy maqsad dunyo qurish (worldbuilding) emas, balki botiniy haqiqatni ramziy til orqali ifodalashdir.

Shuni ham qo’shimcha qilish lozimki, mumtoz Sharq adabiyotidagi fantastik unsur yagona tasavvufiy-allegorik shakl bilan cheklanmaydi. Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar” va “Iskandarnoma” dostonlarida uchraydigan sehrli saroylar, jodugarlik va g’ayritabiiy sayohat motivlari [14. 1985:B.88-91], shuningdek xalq orasida keng tarqalgan “Chor darvesh” turkumidagi qissalar barchasi diniy-irfoniy yukdan ko’ra ko’proq estetik zavq va syujet murakkabligiga yo’naltirilgan alohida, “dunyoviy-romanesk fantastika” qatlamini tashkil etadi. Bu irfoniy-ramziy va dunyoviy-romanesk kabi ikki qatlam o’rtasidagi farqni aniq ajratish o’zbek fantastik-sarguzasht an’anasining, jumladan Xudoyberdi To’xtaboyev ijodining, chuqur tarixiy ildizlarini to’g’ri tipologik joyiga qo’yish uchun zarurdir.

Yelizar Meletinskiyning “Поэтика мифа” (1976) asari fantastik adabiyot ildizlarini mif va folklarning tarixiy-tipologik evolyutsiyasi orqali tushuntiradi [27. 1976:B.14-16]. Bu nazariya, xususan, kontakt bo’lmagan (nokontakt) tipologik o’xshashliklarni, ya’ni turli xalqlar mifologiyasida mustaqil ravishda paydo bo’ladigan umumiy motivlarni (qahramonning g’ayritabiiy tug’ilishi, sinovlar yo’li, o’lim-tirilish sikli) tushuntirishda alohida qimmatga ega bo’lib, o’zbek va ingliz fantastikasi o’rtasidagi to’g’ridan-to’g’ri adabiy ta’sirdan mustaqil bo’lgan parallellarni ilmiy asoslash imkonini beradi. Bunga qo’shimcha ravishda, Mixail Baxtinning xronotop nazariyasi [26. 1975:B.234-236] ham fantastik dunyo qurilishini qiyosiy baholashda ishchi termin sifatida qo’llaniladi. Masalan, Navoiy “Lison ut-tayr”idagi qushlar safari makoni bilan Tolkien O’rta yeridagi geografik-tarixiy izchillikni olaylik, ikkalasi ham o’ziga xos “fantastik xronotop” namunasi bo’lib, ammo birinchisida makon ramziy-botiniy, ikkinchisida esa deskriptiv-worldbuilding xarakteriga ega.

O’zbek adabiyotshunosligida fantastik adabiyot nazariyasi mustaqil, tizimli tadqiqot predmeti sifatida deyarli shakllanmagan. Botir Nazarovning “O’zbek sovet adabiyoti tarixi” (1977) asarida fantastik unsurlar faqat boshqa mavzular (masalan, ijtimoiy tanqid, satira) doirasida, epizodik tarzda tilga olinadi, fantastikaning o’ziga xos poetik-tipologik xususiyatlari nazariy jihatdan umuman ochib berilmaydi [13. 1977:B.45]. Naim Karimovning “XX asr o’zbek adabiyoti tarixi” (2006) asarida ham fantastik-falsafiy nasr haqida qimmatli kuzatishlar mavjud, biroq ular tipologik tizimga solinmagan, tavsifiy xarakterda qoladi [10. 2006:B.312]. Begali Qosimov esa jadidchilik davri adabiyotidagi utopik tasavvurlarni ijtimoiy-siyosiy kontekstda tahlil qiladi, ammo bu tasavvurlarni jahon fantastika nazariyasi (masalan, Tomas Mor yoki Uellsning utopik-distopik an’analari) bilan tipologik bog’lamaydi [15. 1994:B.118-120].

Qiyoslash shuni ko’rsatadiki, Todorov yoki Suvin kabi G’arb nazariyotchilari ma’lum bir asarni aniq operatsional mezon (“ikkilanish”, “kognitiv begonalashtirish”) orqali tipologiyalashga intilgan bo’lsa, o’zbek adabiyotshunosligida bu vazifa ko’pincha “badiiy shartlilik” yoki “xalq og’zaki ijodi ta’siri” kabi umumiy, operatsional aniqlikka ega bo’lmagan tushunchalar orqali hal qilingan. Bu holat, bir tomondan, sovet davri adabiyotshunosligining mafkuraviy cheklovlaridan (fantastika “jiddiy bo’lmagan”, “xalq ommasiga mo’ljallangan” yo’nalishtirish sifatida qaralgani), ikkinchi tomondan, mustaqillik davridagi adabiyotshunoslikning ko’proq milliy-tarixiy va falsafiy-axloqiy tahlilga yo’naltirilganidan kelib chiqadi. Natijada, o’zbek fantastikasi hozirgacha G’arb nazariy apparati bilan tizimli qiyoslanmagan.

Shu bilan birga, H. Yo’ldoshevning o’zbek xalq og’zaki ijodidagi fantastik-mifologik motivlarga bag’ishlangan tadqiqotlari hamda M. Qo’shjonovning o’zbek nasridagi badiiy shartlilik muammosiga oid kuzatishlari ushbu sohada dastlabki, garchi tizimlashtirilmagan bo’lsa-da, qimmatli urinishlar sifatida baholanishi kerak. Biroq ularning tavsifiy, nazariy jihatdan formallashtirilmagan xarakteri G’arb nazariyalaridagi “kognitiv begonalashtirish” yoki “ikkilanish” kabi aniq operatsional mezonlar bilan hali ham to’la qiyoslanmaganini ko’rsatadi.

Yuqoridagi qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud nazariy maktablarning har biri fantastik adabiyot hodisasining muayyan qirrasini muvaffaqiyatli izohlaydi, biroq hech biri, alohida olinganda, o‘zbek va ingliz fantastik adabiyotini qiyosiy-tipologik tahlil qilish vazifasini to‘liq qondira olmaydi. Buning kamida uch sababi bor: birinchidan, mavjud nazariyalarning aksariyati yevropasentrik empirik materialga asoslangan; ikkinchidan, mavjud tipologiyalar (Mendleson, Klut-Grant) sinxron-statik xususiyatga ega bo‘lib, diaxron (tarixiy) rivojlanish dinamikasini tushuntirish uchun mo‘ljallanmagan; uchinchidan, mavjud nazariyalarning hech biri kontakt va nokontakt o‘xshashliklarni farqlash mezonini o‘z ichiga olmaydi.

Shu asosda quyidagi uch bosqichli ishchi tipologik model taklif etiladi:

1) Ontologik mezon g‘ayritabiiy unurning matn ichidagi maqomi (Todorov bo‘yicha "ikkilanish", Mendleson bo‘yicha portal/immersiv/intruziv/liminal tip) aniqlanadi.

2) Funktsional-kognitiv mezon Suvin va Jekson nazariyalari sintezi asosida g‘ayritabiiy unurning kognitiv-tanqidiy, subversiv-psixologik yoki mifopoetik-arxetipik vazifasi aniqlanadi.

3) Milliy-madaniy zamin mezoni fantastik unurning kelib chiqishi qaysi milliy-mifologik, diniy-falsafiy yoki tarixiy-ijtimoiy zaminga borib taqalishi va bu zaminning kontakt yoki nokontakt xarakterga ega ekanligi belgilanadi.

Modelning amaliy qo‘llanilishini ko‘rgazmali qilish uchun quyidagi misolni keltirish mumkin. Gerbert Uellsning “Vaqt mashinasi” asariga birinchi bosqichni qo‘llasak, asar Mendleson tipologiyasi bo‘yicha "intrusion fantasy"ga yaqin, ammo ilmiy-texnik asoslanish tufayli o‘ziga xos gibrid shaklga ega ekanligi aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda uning badiiy vazifasi Suvin ma‘nosidagi kognitiv-tanqidiy, ya‘ni Viktoriya davri sinfiy tabaqalanishini (Eloi va Morlok obrazlari orqali) bashoratli tanqid qilish ekanligi ko‘rsatiladi. Uchinchi bosqichda esa bu asarning german-yevropa ilm-fan taraqqiyoti falsafasi va darvinizm bilan bog‘liq milliy-madaniy zamini belgilanadi.

Xuddi shu uch bosqichli tahlil Xojiakbar Shayxov asarlariga qo‘llanilganda, birinchi bosqichda asarning intrusion-gibrid tipologiyasi, ikkinchi bosqichda uning kognitiv-tarbiyaviy vazifasi tasdiqlanadi, uchinchi bosqichda esa o‘zbek ilmiy fantastikasining sovet mafkuraviy nazorati va milliy pedagogik an‘ana bilan bog‘liq o‘ziga xos zamini ochib beriladi. Shu tariqa Uells va Shayxov asarlari o‘rtasidagi o‘xshashlik (ikkalasida ham ilmiy-kognitiv asoslash mavjud) va farq (turli mafkuraviy-madaniy zaminlar) bir vaqtning o‘zida aniq ko‘rsatilishi mumkin bo‘ladi. Bu esa modelning qiyosiy adabiyotshunoslikdagi amaliy qimmatini tasdiqlaydi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan nazariy maktablarni umumlashtirish maqsadida quyidagi jadval taklif etiladi. Jadval har bir nazariyaning asosiy tahlil birligini, kuchli tomonini va ushbu tadqiqot nuqtayi nazaridan asosiy cheklovini ko‘rsatadi.

Nazariyotchi	Tahlil birligi	Kuchli tomoni	Cheklovi
Todorov	O‘quvchi reseptsiyasi (ikkilanish)	Aniq, operatsional mezon	Immersiv fantastikaga qo‘llanmaydi
Suvin	Kognitiv begonalashtirish	Ilmiy fantastikani aniq belgilaydi	Fantastikani "past" janr deb qaraydi
Frey	Arxetip va rejim	Keng tarixiy-tipologik qamrov	Mavhum, matn darajasida amaliy emas
Jekson	Psixanalitik subversiya	Ijtimoiy-siyosiy funksiyani ochadi	Freyd-lakanchi asosga bog‘liqlik
Hyum	Mimezis-fantastika dialektikasi	Qattiq janr chegaralarini yumshatadi	Tipologik aniqlik yetishmaydi
Mendleson	Retorik-strukturaviy tip	Amaliy, matn tahliliga qulay	Faqat anglofon materialga asoslangan
Atteberi	"Loyqa to‘plam" (spektr)	Gradual tahlilga imkon beradi	Markaz-periferiya tanlovi subyektiv
Propp	Syujet funksiyalari	Universal morfologik model	Faqat sintagmatik strukturani qamraydi
Meletinskiy	Mifopoetik chuqur struktura	Nokontakt o‘xshashliklarni asoslaydi	Tarixiy-madaniy o‘ziga xoslikni kamroq hisobga oladi
Tasavvufiy-irfoniy model	Ramziy til (til ar-ramz)	Sharq materialiga adekvat	G‘arb terminologiyasida hali formallashtirmagan

Xulosa. O‘tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, fantastik adabiyot nazariyasi hozirgi kunga qadar bir qancha qisman, ko‘pincha bir-biriga zid nazariy modellar orqali ifodalangan bo‘lib, ularning hech biri alohida holda o‘zbek va ingliz fantastik adabiyotini qiyosiy-tipologik tahlil qilish vazifasini to‘liq qondira olmaydi. Todorov, Suvin, Frey, Jekson, Hyum, Mendleson, Atteberi, Klut-Grant, Meletinskiy va Baxtin nazariyalarining tanqidiy sintezi, shuningdek Sharq tasavvufiy-ramziy an‘anasining alohida tipologik toifa sifatida kiritilishi asosida ishlab chiqilgan uch bosqichli (ontologik – funksional-kognitiv – milliy-madaniy) tipologik model fantastik adabiyotni qiyosiy o‘rganishning yangi, madaniy jihatdan inklyuziv metodologik negizini tashkil etadi.

Ushbu model, Uells va Shayxov, Tolkien va Navoiy, Rouling va To‘xtaboyev asarlari misolida ko‘rsatilganidek, nafaqat matn ichidagi tipologik xususiyatlarni, balki asarlar orasidagi kontakt yoki nokontakt o‘xshashliklarni ham aniqlash imkonini beradi, bu esa keyingi qiyosiy-adabiyotshunoslik tadqiqotlari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Almond, David. Skellig. Hodder Children's Books, 1998. – P. 15–20.
2. Attebery, Brian. Strategies of Fantasy. Indiana University Press, 1992. – P. 12.
3. Attor, Fariddin. Mantiq ut-tayr / rus./o‘zb. tarj. Toshkent: G‘afur G‘lom, 1997. – B. 45–47.
4. Campbell, Joseph. The Hero with a Thousand Faces. Pantheon Books, 1949. – P. 23, 30.
5. Clute, John, and John Grant, editors. The Encyclopedia of Fantasy. St. Martin's Press, 1997. – P. viii–ix.
6. Frye, Northrop. Anatomy of Criticism: Four Essays. Princeton University Press, 1957. – P. 33–34.
7. Hume, Kathryn. Fantasy and Mimesis: Responses to Reality in Western Literature. Methuen, 1984. – P. 21.
8. Irwin, W. R. The Game of the Impossible: A Rhetoric of Fantasy. University of Illinois Press, 1976. – P. 9.
9. Jackson, Rosemary. Fantasy: The Literature of Subversion. Methuen, 1981. – P. 3–4.
10. Karimov, Naim. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Akademiya, 2006. – B. 312.
11. Mendlesohn, Farah. Rhetorics of Fantasy. Wesleyan University Press, 2008. – P. xiv–xv.
12. Navoiy, Alisher. Lison ut-tayr. Toshkent: Fan, 2000. – B. 210–215 ("Simurg‘ o‘zing o‘zingsan" bo‘limi).
13. Nazarov, Botir. O‘zbek sovet adabiyoti tarixi. O‘qituvchi nashriyoti, 1977. – B. 45.
14. Nizomiy Ganjaviy. Haft paykar. Toshkent: G‘afur G‘lom, 1985. – B. 88–91.
15. Qosimov, Begali. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Sharq, 1994. – B. 118–120.
16. Rabkin, Eric S. The Fantastic in Literature. Princeton University Press, 1976. – P. 8.
17. Rowling, J.K. Harry Potter and the Philosopher's Stone. Bloomsbury, 1997. – P. 1–5.
18. Scholes, Robert. Structural Fabulation: An Essay on Fiction of the Future. University of Notre Dame Press, 1975. – P. 29.
19. Shayxov, Xojiakbar. Sirli kristall (ilmiy-fantastik qissalar). Toshkent: Yosh gvardiya, 1985. – B. 22–25.
20. Suvin, Darko. Metamorphoses of Science Fiction: On the Poetics and History of a Literary Genre. Yale University Press, 1979. – P. 7–8.
21. Todorov, Tzvetan. The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre. Cornell University Press, 1975. – P. 25.
22. To‘xtaboyev, Xudoyberdi. Sirli xazina. Toshkent: G‘afur G‘lom nomidagi nashriyot, 1978. – B. 12–14.
23. Tolkien, J.R.R. Uzuklar Hukmdori. Toshkent: tarj. nashr, 2021. I jild, Muqaddima.
24. Umarbekov, Ulmas. Sariq devni minib (ssenariy asosidagi qissa). Toshkent: Yosh gvardiya, 1980. – B. 5–8.
25. Wells, H.G. The Time Machine. Heinemann, 1895. – P. 3–9.
26. Бахтин, Михаил. Вопросы литературы и эстетики. Художественная литература, 1975. – С. 234–236.
27. Мелетинский, Елеазар. Поэтика мифа. Наука, 1976. – С. 14–16.
28. Пропп, Владимир. Морфология сказки. Academia, 1928 (2-nashr: Наука, 1969). – С. 23–24.